

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 694 sahifa.
2026-yil, fevral

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO’YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG’URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJIRIBASI	66
Alimardonov G’ayratjon Nuraliyevich	
XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o’g’li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA’MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ	101
Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи	
DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	107
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
RAQAMLI MOLIVA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI	117
Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li	
GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI	123
Abdirazakov Akmal Ibragimovich6 Namozov Og'abek Maxmud o'g'li	
AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS	128
Utkirova Maftuna Murodjon qizi	
O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI	134
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	139
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
OPTIMIZATION OF ROADSIDE AUTO CAMPING SITES (REST AREAS) ON HIGHWAYS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFRASTRUCTURE GAPS AND CORRIDOR-BASED EVIDENCE FROM UZBEKISTAN	150
Akramov Akbarjon Akmal ugli	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHUVLARINING AHAMIYATI	156
Aminov Abbas Mo'minboy o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR	160
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
MINTAQADA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARIDA MARKETING STRATEGIYASI	165
Yakubov Temur G'anibekovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI	169
Siroj Zarina Rustambekovna	
AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINING YAIM VA BANDLIKKA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	176
Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Ziyodullayev Qahramon	
ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ: ПОЛЬЗА ДЛЯ ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИИ	185
Хамдамова Гавхар Абсаматовна	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISHNING MOLIVAVIY VOSITALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	191
Mamatov Baxodir Quldoshovich	



KO'P QIRRALI VALLARNING SHAKLLANTIRISH METODLARI VA USULLARINI TAHLIL QILISH	197
<i>Xasanov Bobirmirzo Maxmudali o'g'li, Valixonov Dostonbek Azim o'g'li, Alibekov Rasulbek Qanotbek o'g'li</i>	
MINTAQA SANOATINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	205
<i>Abdinazarov Xusan Shaymanovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	209
<i>Nomozova Qumri Isoyevna</i>	
XALQARO STANDARTLAR TALABLARI ASOSIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	216
<i>Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li</i>	
QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHNI TARTIBGA SOLISH TIZIMI	221
<i>Achilova Firuza Kurbanovna</i>	
BANK MENEJMENTIDA INKLYUZIV MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, TAMOYILLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI	225
<i>Rajabov Oybek Panjievich</i>	
MINTAQADA OLIY TA'LIM TIZIMINING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	229
<i>Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li</i>	
MAISHIY XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION KLASSTER MODELINI JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	235
<i>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INVESTITSiya FAOLIYATINI BOSHQARISH	240
<i>Xatamov Nurbek Ochirdiyevich, Sharifi Abdul Fatah</i>	
MOLIYAVIY REJALASHTIRISHNING AMALDAGI MUAMMOLARI VA ULARNI YECHIMI YUZASIDAN TAKLIFLAR	245
<i>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</i>	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIK RISKLARINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	251
<i>Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	257
<i>Karimov Shohruh Boydulla o'g'li</i>	
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATINING HISOBOTLARINI XALQARO STANDARTLARGA TRANSFORMATSIYA QILISH	262
<i>Astanov Zafar Murodillayevich</i>	
QARAMA-QARSHI AYLANUVCHI IKKI ROTORLI SHAMOL TURBINASINING MATEMATIK MODEL	266
<i>Pirmatov Nurali Berdiyevich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Saodullayev Abror Saypullayevich, Qurbonov Najmiddin Abduxamidovich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTIONAL VA INVESTITSION MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	272
<i>Norboyev Sarvar Azodovich</i>	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT SOHASIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY AHAMIYATI	277
<i>Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li</i>	
ANALYSIS OF UZBEKISTAN'S MAIN ECONOMIC INDICATORS AND GDP GROWTH	283
<i>B. Beknazarov</i>	



SOTISH JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA MARKETING TADQIQOTLARINING INTEGRATSIYASI	288
Abduxalilova Laylo Tohtasinovna	
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В АУДИТЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ: ГЛОБАЛЬНЫЙ И УЗБЕКСКИЙ КОНТЕКСТ	294
Мегноров Алмардон Абдирахмонович	
RISK MANAGEMENT STRATEGIES IN UNCERTAIN ECONOMIC ENVIRONMENTS: A GLOBAL COMPARATIVE STUDY	302
Nigmatova Malika	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	307
Hamrayev Maqsudjon Saidaxmadovich	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH MASALALARI	311
Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi	
АВТОМАТИЗАЦИЯ АУДИТОРСКИХ ПРОЦЕДУР НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ: ВЛИЯНИЕ НА КАЧЕСТВО АУДИТОРСКИХ ЗАКЛЮЧЕНИЙ	316
Киличева Ф.Б.	
MAISHIY TEXNIKA EKSPORTIDA YASHIL IQTISODIY SAMARADORLIKNI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	320
Kushmanova Mahbuba	
GAZ TA'MINOTIDA YO'QOTISHLARNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI	324
Xamidov Xayriddin Faxritdinovich	
DAVLAT AKTIVLARINI XUSUSIYLASHTIRISHNING MINTAQ IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA).....	329
Sharapov Farrux Shomuratovich	
КРИТЕРИИ ОТБРАКОВКИ ЭКСТРУЗИОННЫХ АЛЮМИНИЕВЫХ ПРОФИЛЕЙ ГРУППЫ АЛМГСІ ПО МАКРОСТРУКТУРНЫМ ПРИЗНАКАМ В ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ УСЛОВИЯХ	333
Ибрахимов Фаррухжон Фарходович	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DEBITORLIK QARZLARI VA FAKTORING OPERATSIYALARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	336
G'oziyeva Mokhira Rustamovna	
KULTIVATOR YUMSHATKICH PANJALARI O'TMASLANISH DARAJASINING ISH KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	345
Quvondiqov Yoqub Tursunbaevich, Nuraliyev To'liq Alimardanovich	
SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION STRATEGIYANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR	352
To'g'onov Ibroximxo'ja	
TMK KORXONASI SHAROITIDA R6AM5 MARKALI TEZKESAR PO'LATDAN TAYYORLANGAN PARMA UCHUN TERMIK ISHLOV BERISH REJIMI	358
Djalalova Sevara Toxtamuratovna	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	362
Шоев Алим Халмуратович	
TRANSFORMATSIYA VA XUSUSIYLASHTIRISH OMILLARINING BANK SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	367
Umirzoqova Aziza Olim qizi	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	372
Ismatov Raxmatilla Oltinovich	
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA.....	376
Yoqubjonov Ibrohim G'olibjon o'g'li	



BANK TIZIMIDAGI AKTIVLARINING UNUMDORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA STRATEGIK YONDASHUVLAR	379
Sadikov Q.M.	
СЦЕНАРНОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ ОТРАСЛЕЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ НЕОПРЕДЕЛЁННОСТИ И СТРУКТУРНЫХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	383
Муслимова Ф.С., Хашимова Н.А.	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY XIZMATLARNI TAQDIM QILISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	390
S.M. Raximova	
YANGI O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH MODELI	395
Qurbanova Muazzam Fazliddinova	
IQTISODIYOTNING TRANSFORMATSIYALASHUVI JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING TAHLILI	399
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISH MASALALARI	404
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING INNOVATSION FAOLIYATINI INVESTITSİYALAR YORDAMIDA QO'LLAB-QUVVATLASH	408
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
FRANSUZ TILIDA FE'L SEMANTIKASINING KO'PMA'NOLILIK VA BIRMA'NOLILIK ASPEKTLARI	412
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Bekmetova Munisa Karimbayevna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARDA CHET-EL INVESTISIYASI VA KREDITLARINI ROLI	418
Sultanov Anvar Abdullaevich	
INSON QON TOMIRLARINING TARMOQLANISHINI L-SISTEMALAR ASOSIDA HOSIL QILISH ALGORITMNI ISHLAB CHIQISH	423
Boliyeva Dilrabo Nurbek qizi	
YASHIL IQTISODIYOT LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH)NING AHAMIYATI	429
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI	434
Otayor Usmonaliyev	
TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA ARBITRAJI VA UNING MOHIYATI	440
Yaxyayev Ziyodilla Lutfullayevich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	443
Mirzaraximova Aziza Azimdjanovna	
DON VA UN MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISH XUSUSIYATLARI	450
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TUXUM ISHLAB CHIQARISHNING JORIY HOLATI TAHLILI	454
Ismoilov Zuhridin Sayitqulovich	
ZAMONAVIY TURAR-JOY ME'MORCHILIGIDA MILLIYLIK VA AN'ANAVIYLIKNING O'RNİ VA AHAMIYATI	459
Toshniyozov Otabek Hakimovich	
MARKAZIY QIZILQUM FOSFORIT RUDALARIDAN QIMMATBAHO KOMPONENTLARNI KOMPLEKS AJRATISH TEXNOLOGIYASI	464
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Ruzibayeva Dildora Akramovna, Xushvaqtova Dilshoda Shavkat qizi	



BANKLARDA CHAKANA KREDITLASH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH TARTIBI	470
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING XALQARO MODELLARI HAMDA ULARNING AMALIY AHAMIYATI	476
Nodirbek Shavkatovich Mirzaaxmedov	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA XOTIN-QIZLARNING BOSHQARUV KARYERASI: MOHIYATI, ZARURIYATI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	483
Abduraxmonova Feruzabonu	
ASOSIY KAPITALGA INVESTITSİYALARNI MOLIYALASHTIRISHNING RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR TAJRIBALARI	489
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINING TASHKILIY TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH	495
Uzakova Umida Ruziyevna	
OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGI VA PROFESSOR-O'QITUVCHI-TALABA NISBATI O'RTASIDAGI IQTISODIY BOG'LIQLIK	502
Dusanov Salim Mamarasulovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ВНЕДРЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЫ AML: АНАЛИЗ ПРАКТИК ВЕДУЩИХ БАНКОВ И СТРАН СНГ	507
Рашидов Авазбек Рахимович	
BOJXONA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR TAHLILI	516
Radjapova Latofat Sardorovna	
DEFORMATSIYALANUVCHAN STANDART CHIZIQLI QATTIQ (STANDARD LINEAR SOLID MODEL, SLS) MODEL ISHLAB CHIQISH VA SONINI TAHLIL QILISH	523
Ahmadov Ilhom Aktam o'g'li, Faxriddinova Rayhona Vahobjon qizi, Rustamova Ruxsora Kamtar qizi	
ВЛИЯНИЕ КЕРАМИЧЕСКИХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ НА ТЕПЛОВУЮ ЭФФЕКТИВНОСТЬ КАМЕННОГО ТЕПЛОАККУМУЛЯТОРА В СОЛНЕЧНО-АССИСТИРОВАННЫХ БИОГАЗОВЫХ УСТАНОВКАХ	530
Д.М. Жураханов	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING KELAJAKDAGI IMKONIYATLARI	537
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li	
MAHALLIY BUDJETLARNI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA OCHIQLIKNI KUCHAYTIRISH	544
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Normatov Joxongir Murodillayevich	
DON MAHSULOTLARI TARMOG'IDA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	548
Aipova Iroda Ikramovna	
BUXORO VILOYATI SANOATI ISHLAB CHIQARISHINING TARMOQ TARKIBI DINAMIKASI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR TAHLILI	554
Toshov Mirzabek Hakimovich	
TEMIR YO'L TRANSPORTINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEZONLARI	560
Nurxo'jayeva Xilola Hakimxo'jayevna	
СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ УГОЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТЬЮ НА ОСНОВЕ УСТОЙЧИВОСТИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА	568
Teshaboyev To'liqin Zakirovich, Muradov Botir Xayyat	
IQTISODIYOT TARMOQLARIDA SUV ISTE'MOLINING BOSHQARUVINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	578
Karimov Anvarjon Muqumjonovich, Turg'unov Muhammadaziz Baxtiyorjon o'g'li	
SUV RESURSLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA MOBIL ILOVALAR ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI	584
Karimov Anvarjon Muqumjonovich, Uzakov Sirojiddin Djuraboyevich	



SUN'IIY INTELLEKT VA IQTISODIYOTNING O'ZARO ALOQADORLIGI	591
Sobirov Abdurasul Abdugafarovich	
IDENTIFICATION OF WEAVING STRUCTURES IN PILE FABRICS	596
Bahrom Baturovich Dautov, Bakhtiyor Yormakhmatovich Abduganiyev, Erkin Shamsiddinovich Rayxonov, Nazar Kilichov Bafoevich	
INNOVATIVE APPROACHES TO ENSURING FINANCIAL STABILITY IN COMMERCIAL BANKS	602
Otajanova Shahnoza Shuhratovna	
AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATI VA OLIY TA'LIM SIFATI KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK MASALALARI	608
Pirmedova Xayitgul Muxammedovna	
TIJORAT BANKLAR FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA UNING AHAMIYATI	613
Kenjayev M.G'.	
MAJBURIYATLAR AUDITINING ASOSIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	618
Ergasheva Vasila Abdumajitovna	
MAMLAKATIMIZDA OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIVAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	623
Abdusattarova Dildora Bohodirovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI TAHLILI	630
Djurayeva Lola Abdugabbarovna	
JAMOAT YO'LOVCHI TRANSPORTINI YO'NALISHLARDA HARAKATI MUNTAZAMLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR	635
Nazarov Anvar Aripovich, Siddiqov Beknazar Jumanazar o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	643
Ismatullayeva Munisxon Bori qizi	
O'ZBEKISTONDA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: 2026-YIL ISLOHOTLARI VA RAQAMLI MA'MURCHILIK	649
Yakubov San'atbek Ravshanbekovich	
ISHLAB CHIQUVCHI SANOATI CHIQINDILARIDAN LITIIY BIRIKMALARINI AJRATIB OLISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIK YECHIMLARI	655
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Komilov Botir Asqar o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING MOLIVAVIY RISKLARINI BAHOLASHDA MIQDORIY USULLARDAN FOYDALANISH	663
Raximov Abduxalil Toshbotirovich	
JUN TOLASINI MAYDA VA YIRIK IFLOSLIKlardan TOZALASH TEXNOLOGIYASI VA USKUNALARINI TAKOMILLASHTIRISH	669
Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich	
O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA KASB-HUNAR TA'LIMI TERMINLARINING SEMANTIK QIYOSIY TAHLILI	673
Jabbarova Gulbahor Jumanazarovna	
GAZ BALLONLI AVTOMOBILLARDA RADIOTO'LQINLI UZATMALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TEXNIK NAZORAT TIZIMINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH	677
Mirzayev Bahodir Nuritdinovich, Zulfiqorova Guldona Akbarjon qizi	
MINTAQANING TASHQI SAVDO AYLANMASINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARI	682
G'oyibnazarov Muxammad Xamidbekovich	
IQTISODIY TADQIQOTLARDA SO'ROV O'TKAZISH METODI VA UNING ANKETA HAMDA INTERVYU SHAKLLARINI QO'LLASH MASALALARI	687
Dusmuratov Radjabbay Davlatbayevich	



IQTISODIY TADQIQOTLARDA SO'ROV O'TKAZISH METODI VA UNING ANKETA HAMDA INTERVYU SHAKLLARINI QO'LLASH MASALALARI

Dusmuratov Radjabbay Davlatbayevich

Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
Iqtisodiyot fakulteti, "Moliya" kafedrası professori,
i.f.d. Email:dusmuratov62@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada iqtisodiy tadqiqotlarning muhim empirik metodlaridan biri sifatida so'rov metodining mazmun-mohiyati, ahamiyati va turkumlari ochib berilgan. Xususan, iqtisodiyotda so'rov metodining shakllari hisoblangan anketa va intervyu metodlarining mazmuni, qo'llanilish sohalari, afzalliklari va kamchiliklari yoritilgan. Xulosa o'rnida anketa va intervyu metodlarining ta'riflanishiga mualliflik yondashuvi keltirilgan, ularni iqtisodiy tadqiqotlarda qo'llashning ahamiyati hamda zarurati asoslangan.

Kalit so'zlar: empirik iqtisodiy tadqiqotlar, kuzatish, so'rov, iqtisodiy so'rov, iqtisodiy intervyu, respondent, chuqurlashtirilgan intervyular, anketa, marketing tadqiqotlari.

Abstract. This article examines the essence, significance, and classification of the survey method as one of the key empirical approaches in economic research. In particular, it highlights the content, fields of application, advantages, and limitations of questionnaires and interviews as principal forms of economic surveys. In conclusion, the author proposes refined definitions of questionnaire-based and interview-based methods, and substantiates their importance and necessity in economic research.

Keywords: empirical economic research, observation, survey, economic survey, economic interview, respondent, in-depth interview, questionnaire, marketing research.

Аннотация. В статье раскрыты сущность, значение и классификация метода опроса как одним из важных эмпирических методов экономических исследований. В частности, освещены содержание, области применения, преимущества и недостатки методов анкетирования и интервьюирования, являющиеся формами экономического опроса. В качестве заключения представлен авторский подход определения методов анкетирования и интервьюирования, обоснованы значение и необходимость применения их в экономических исследованиях.

Ключевые слова: эмпирические экономические исследования, наблюдение, опрос, экономический опрос, экономический интервью, респондент, углубленный интервью, анкета, маркетинговые исследования.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan: "Bir haqiqat hammamizga ma'lum: ilm va izlanish bo'lmagan joyda hech qanday rivojlanish, yuksalish va umuman, biror-bir sohaning kelajagi bo'lmaydi", deb alohida ta'kidlandi [1].

So'rov verbal kuzatishning muhim turlaridan biri hisoblanadi. Ammo bu metod birinchi marta sotsiologlar va psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, o'tgan asrning 50-60-yillarida yoppasiga qo'llanila boshlagan. Shuningdek, test, eksperiment va boshqa metodlar bilan bir qatorda iqtisodiy sotsiologiya va psixologiyada ham qo'llanila boshlagan.

"So'rov – sotsiologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan dastlabki axborot yig'ish usuli". Ushbu tushunchaga qomusiy manbalarda batafsilroq ta'rif keltirilgan. Xususan, "So'rov – sotsiologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan

dastlabki axborot yig'ish usuli. So'rov yordamida o'rganilayotgan obyekt to'g'risida empirik ma'lumotlar to'planadi".

Bu tushunchaga Yu.M. Reznik tomonidan batafsilroq ta'rif berilgan: "So'rov – tadqiqotchining respondentlar bilan bevosita yoki bilvosita ta'sirida verbal (yozma yoki og'zaki) axborotlarni maxsus hujjatlar yordamida savollarga berilgan javoblarni ro'yxatga olish shaklida to'plash uslubi".

Shu o'rinda iqtisodiy tadqiqotlarda so'rov o'tkazish metodining imkoniyatlari xususida V.A. Yadovning fikrlarini keltiramiz: "Ushbu metodni qo'llash san'ati aynan nima to'g'risida so'rash, qanday so'rash, qanday savollar berish va nihoyat, olingan javoblar to'g'riligiga qanday ishonch hosil qilishni bilishdan iborat. Kimlardan so'rov o'tkazish, suhbatni qayerda o'tkazish, ma'lumotlarga qanday ishlov berish va so'rov o'tkazmasdan ham ushbu narsalarni bilish mumkinmi degan yana bir qancha boshqa shartlarni qo'shib, ushbu metodning imkoniyatlari to'g'risida ko'proq yoki kamroq to'la tasavvurga ega bo'lamiz".

Shunday qilib, ushbu metod juda oddiy bo'lib ko'rinishiga qaramasdan, undan sotsiologiya bo'yicha maxsus ma'lumotga ega odamgina samarali foydalana olishi mumkin. Shu bois, sotsiologiyani yaxshi bilmaydigan iqtisodchilarga sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi bo'yicha o'quv qo'llanmalarini o'zlashtirish tavsiya etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur mavzuni nazariy va metodologik jihatdan asoslashda, avvalo, tushunchaviy apparatni aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbek tilining izohli lug'ati (2004, 3-jild; 2006, 1-jild)da berilgan atamalar talqini ilmiy kategoriyalarni semantik jihatdan aniqlashtirishga xizmat qiladi. Unda ijtimoiy, iqtisodiy va nazariy tushunchalarning mazmuni izchil sharhlanib, ularning qo'llanish doirasi ochib berilgan. Bu manbalar tadqiqot terminologiyasini bixillashtirish hamda asosiy kategoriyalarni izchil qo'llash imkonini beradi.

Shuningdek, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2004, 4-, 8-jildlar) ijtimoiy jarayonlar, metodlar va nazariy konsepsiyalar haqida umumlashtirilgan, tizimli ma'lumotlarni taqdim etadi. Ensiklopedik manbalar tadqiqot obyektining tarixiy shakllanishi, uning ilmiy talqinlari hamda fanlararo yondashuvlar doirasidagi o'rnini aniqlashga yordam beradi. Bu esa mavzuni keng ijtimoiy va ilmiy kontekstda ko'rib chiqish imkonini yaratadi.

Nazariy-metodologik asoslarni shakllantirishda Yu.M. Reznikning "Введение в социальную теорию. Социальная эпистемология" (1999) asari alohida ahamiyatga ega. Muallif ijtimoiy bilishning epistemologik asoslarini tahlil qilib, ijtimoiy haqiqatni anglash jarayonida subyekt va obyekt o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni ochib beradi. Reznikning qarashlari tadqiqotning nazariy asoslarini mustahkamlash, ijtimoiy voqelikni talqin qilishda konseptual yondashuvni belgilashda muhim metodologik tayanch vazifasini bajaradi.

V.A. Yadov "Стратегия социологического исследования" (2000) asarida ijtimoiy tadqiqotning tavsiflash, tushuntirish va anglash bosqichlarini tizimli ravishda yoritadi. Muallif empirik ma'lumotlarni yig'ish, ularni interpretatsiya qilish hamda nazariy umumlashtirish jarayonlarini izchil asoslab beradi. Yadov konsepsiyasi tadqiqot strategiyasini ishlab chiqishda, metodlar uyg'unligini ta'minlashda va ilmiy xulosalarning ishonchlilikini oshirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Empirik tadqiqot metodlari nuqtayi nazaridan S.A. Belanovskiy intervyu metodini iqtisodiy jarayonlarni o'rganishda samarali vosita sifatida asoslaydi. U intervyu jarayonining strukturasi, savollarni tuzish tamoyillari hamda respondent bilan muloqot strategiyalarini batafsil tahlil qiladi. Bu yondashuv iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni chuqurroq anglash, sifat jihatidan boy ma'lumotlarni olish hamda ularni kontekstual tahlil qilish imkonini beradi.


Umuman olganda, yuqoridagi manbalar mavzuning tushunchaviy, nazariy va metodologik asoslarini shakllantirishda o'zaro uyg'unlikda xizmat qiladi. Izohli lug'atlar va ensiklopedik manbalar kategoriyalarni aniqlashtirsa, Reznik va Yadovning nazariy ishlari tadqiqotning konseptual asosini belgilaydi, Belanovskiy esa empirik metodlar orqali nazariy qarashlarni amaliy tekshirish imkonini beradi. Natijada, mazkur adabiyotlar majmuasi tadqiqotni ilmiy jihatdan asoslash va kompleks yondashuvni ta'minlash uchun zarur metodologik platformani shakllantiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida avvalo umumiy metodologik asos sifatida dialektika, ilmiy tafakkur, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, induktiv-deduktiv, abstrakt-mantiqiy metodlar, qiyoslash kabi nazariy umumilmiy metodlardan foydalanildi. Umumilmiy empirik metodlardan esa ilmiy va qomusiy manbalarni sharhlash, kuzatish va retrospektiv tahlil usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy tadqiqotlar uchun so'rovning bir qancha asosiy turlari mavjud, fikrimizcha, ulardan ikkitasi — iqtisodiy intervyu va iqtisodiy anketa muhim ahamiyatga ega (1-rasm).



1-rasm. Iqtisodiy so'rov metodining turumlanishi¹

Intervyu, aniqrog'i iqtisodiy intervyu tushunchasining ma'nosi va xususiyatlari to'g'risida. "Intervyu (ing. interview – uchrashuv) – publitsistika janri. Jurnalistning bir yoki bir necha shaxs bilan dolzarb masalalar yuzasidan suhbat. Ikki turga bo'linadi: intervyu-xabar asosan axborot yetkazish maqsadida o'tkaziladi; intervyu-tahlilda muhim voqea, hodisa va hujjatlar sharhlab beriladi"². Ushbu izoh iqtisodiy tadqiqotlar metodologiyasida so'rovning bir turi sifatida intervyuning mazmunini to'liq ochib bermaydi. Shuning uchun uni batafsilroq tavsiflashga harakat qildik.

Umuman olganda, intervyu – bu og'zaki so'rov o'tkazish metodi bo'lib, tadqiqotchining respondent bilan maxsus suhbat (shaklga keltirilgan yoki erkin) tarzda o'tkaziladi. Iqtisodiy intervyu – bu tadqiqotchining qandaydir axborotlar va ma'lumotlarga ega bo'lish maqsadida respondent bilan maxsus shaklga keltirilgan yoki oddiy erkin ko'rinishda suhbat o'tkazishi.

Iqtisodiy intervyu quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi:

Noyob axborotlarni olish: ochiq manbalarda aks ettirilmagan, ko'zga tashlanmaydigan ehtiyojlar va istaklar, iste'molchilarning istak-xohishlari to'g'risidagi ekslyuziv ma'lumotlarni olish imkoni bo'ladi.

Iste'molchilarning xulq-atvorlarini tadqiq qilish: iste'molchilar va tadbirkorlarning miqdor jihatdan o'lchash qiyin bo'lgan mayl-istaklarini hamda murakkab iqtisodiy hodisalarni, xususan, iste'molchilarning tovar, ish va xizmatlarni qanday qabul qilishlarini, ularda mahsulotlar bilan bog'liq qanday muammolar borligini va ular nimani o'zgartirishni xohlayotganliklarini o'rganishga yordam beradi (CustDev, User Research).

Strategiyalar ishlab chiqish va ularga tuzatishlar kiritib borish: bozor gipotezalarini tahlil qilish, marketing siyosatiga tuzatishlar kiritish va tovar, ish va xizmatlarni yaxshilash, biznesdagi tendensiyalar, muammolar va istiqbollarni aniqlash.

Moslashuvchanlik: intervyu chog'ida savollarga tuzatishlar kiritish, qiziqarli jihatlarini chuqurlashtirish imkoniyati bo'lib, bu yangi mahsulotlarni yoki bozor gipotezalarini (CustDev) tadqiq qilishda o'ta muhimdir.

CustDev (Customer Development) – bu yangi mahsulot yoki xizmatni yaratishda mijozlar bilan to'g'ridan-to'g'ri suhbatlashib, ularning haqiqiy ehtiyojlari, muammolari va istaklarini o'rganishga qaratilgan metodika bo'lib, bu yordamida biznes g'oyalarni bozor talabiga moslashtirish va xatarlarni kamaytirish mumkin. Asosan, bu jarayonda potensial mijozlar bilan chuqur intervyular o'tkaziladi, ularning fikr-mulohazalari to'planadi va shu asosida mahsulot takomillashtiriladi.

Yangi mahsulotlarni o'rganish: tovarlar bozorga olib chiqilishidan oldin, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash uchun namunalari maqsadli auditoriya (MA) oldida o'rganiladi.

Maqsadli auditoriya – bu atama umumiy belgilari bo'yicha birlashgan yoki qandaydir maqsad va vazifalar yo'lida birlashgan odamlar guruhini nomlash uchun marketing yoki reklamada qo'llaniladi.

Iqtisodiy tadqiqotlarda intervyu o'tkazish turlari:

Intervyu olish (og'zaki so'rov o'tkazish)ning muammoli jihatlari S.A. Belanovskiyning ilmiy asarlarida batafsil yoritilgan³. Uning fikriga ko'ra, iqtisodiy intervyu shaklga keltirilgan yoki oddiy erkin ko'rinishda o'tkazilishi mumkin. Axborotlarni to'plashning ushbu usullaridan har birida o'zining afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Shaklga keltirilgan (standartlashtirilgan) iqtisodiy intervyu olingan birlamchi iqtisodiy axborotlar to'plamiga statistik usullar yordamida ishlov berish va matematik modellar tuzishda foydalanish uchun yaroqli shaklga keltirilgan ma'lumotlarni olishga imkon beradi. Erkin (standartlashtirilmagan) tarzda iqtisodiy intervyu vositasida esa "jonliroq" va "hissiyotli" iqtisodiy ma'lumotlar to'planib, keyinchalik ularga sifatli ishlov beriladi. Umuman, intervyuning har ikkala turi ham tadqiqotchi-iqtisodchi tomonidan o'zining ilmiy ishida aniq maqsad shakllantirilib, intervyu eng samarali usul bilan o'tkazilganida natijador bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy tadqiqotlarda so'rov o'tkazishning shakllaridan yana biri – bu anketa. Avvalo, anketa tushunchasining lug'aviy ma'nosiga to'xtalsak, «Anketa [fr. enquete – surishtirish, xabar, ma'lumot olish]»

1 Muallif ishlanmasi

2 O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. -B. 180. (- 704 b.)

3 <https://socioline.ru/pages/belanovskijmetod-intervyu-v-issledovaniyah-ekonomicheskikh-protsessov>

– tegishli ma'lumot olish, to'plash uchun belgilangan so'roq varaqasi, so'rovnoma. So'roq (savol) orqali to'plangan ma'lumotlar, shunday yo'l bilan ma'lumotlar to'plash⁴. Ushbu tushunchani iqtisodiy tadqiqotlar metodi sifatida batafsilroq tavsiflashga o'tsak, anketa o'tkazish bu, avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy so'rov metodi sifatida tadqiqotchining u yoki bu savollariga respondent(lar) tomonidan javoblarni maxsus anketa varaqasini to'ldirish yo'li bilan olish tushuniladi. Ushbu savollarning barchasi o'zaro maxsus ichki birlik (yaxlitlik)da va muvofiqlikda bo'lib, buning natijasida barcha savollar to'plami tahlil qilinib, tadqiqotchi ishchi gipoteza tuzish uchun iqtisodiy axborotlar bazasiga ega bo'ladi.

Empirik iqtisodiy tadqiqotlar metodi sifatida anketa so'rovida respondent bilan shaklga solingan suhbat o'tkazilib, bunda respondent anketadagi o'zaro bog'liq savollarga javob berish orqali tadqiqotchini qiziqtiradigan iqtisodiy ma'lumotlarni taqdim etadi.

Anketa so'rovi metodining mohiyati quyidagi xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi:

- Verbal-kommunikativ xususiyatga egaligi: o'zaro ta'sir savollar va javoblar orqali sodir bo'ladi.
- Axborotlarni to'plash: asosiy maqsadi – respondentlarning bilimni sinash emas, balki ulardan ma'lumotlar olish.
- Ommaviy o'tkaziladi: qisqa muddat ichida katta miqdordagi odamlarni qamrab olish mumkin.

Anketa so'rovi metodi quyidagi mezonlar bo'yicha turkumlanadi:

1. O'tkazish usuli bo'yicha: tarqatma material yordamida, pochta orqali, OAV orqali, onlayn (internet-so'rov).
2. O'tkazish joyi bo'yicha: ko'chada, uyda, ta'lim tashkilotida, maqsadli auditoriyada.
3. Savollar turlari bo'yicha: a) yopiq savollar: taklif qilingan variantlardan tanlab olinadi; b) ochiq savollar: erkin shaklda javob beriladi; v) aralash savollar: savollar kombinatsiyalanadi.

Anketa so'rovi o'tkazishning intervyu olish (og'zaki so'rov)dan farqi, u hamisha shaklga solingan holda bo'lib, unda foydalaniladigan savollarning aksariyat qismi va turlari "yopiq", ya'ni savollar oldindan ko'zda tutilgan javoblardan birini taxmin qiladi. Shuningdek, anketa so'rovlarining katta qismi anonim va tadqiqotchi bevosita ishtirok etmasdan o'tkaziladi.

Anketa so'rovi metodining mazmun-mohiyati va turkumlanishidan kelib chiqib, uning tuzilmasini quyidagicha taqdim etish mumkin (1-jadval).

Anketa so'rovini o'tkazishning asosiy prinsiplari V.A. Yadov⁵ tomonidan shakllantirilgan bo'lib, ularni quyidagicha tahrirda iqtisodiy tadqiqotlarga moslashtirgan holda taqdim etamiz:

- so'rovnoma varaqasi respondentlarning psixologiyasini hisobga olgan holda shakllantiriladi;
- respondentlarning iqtisodiy madaniyati va amaliy xo'jalik yuritish tajribalari hisobga olinadi;
- xususiy savollar umumiy savollardan oldin keltirilishi zarur;
- so'rovnoma varaqasidagi savollarning mazmuni bo'yicha turkumlangan bo'limlari bir xil (teng) hajmda bo'lishi lozim;
- so'rovnoma varaqasidagi savollar ro'yxatining boshida respondentning faoliyati bilan bog'liq soddav savollar, so'ngra murakkabroq "motivatsion", undan keyin yana soddaroq, oxirida bir qancha eng murakkab savollar va nihoyat, eng oxirida respondent to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilishi maqsadga muvofiq (1-jadval).

1-jadval. Anketa so'rovining tarkibiy tuzilmasi (namuna)⁶

Tarkibi	Mazmuni
Kirish	Anketa so'rovini kim va nima uchun o'tkazadi, to'plangan ma'lumotlardan qanday foydalaniladi, anonimlik kafolatlanishi, to'ldirish bo'yicha yo'riqnoma berish, anketani qaytarish usuli, hamkorlik uchun minnatdorlik bildirish.
Asosiy qismi: a) Kirish savollari	Respondentni qiziqtirish uchun, uning jarayonga kirishini osonlashtirish uchun hodisalar va faktlardan iborat savollar
b) Asosiy savollari	Respondent faoliyatining o'ta muhim sohalari bilan bog'liq eng o'tkir va nozik; shaklan murakkab; ochiq savollar
v) Yakunlovchi savollari	Nisbatan oson, respondentni charchatib qo'ymaydigan savollar
Respondent haqida ma'lumotlar	Respondentning ijtimoiy maqomi to'g'risidagi savollar: yoshi, kasbi, ish staji, lavozimi, ma'lumoti va boshqalar.
Ishtiroki uchun minnatdorlik	Anketa savollariga xolisona va to'g'ri javob berganingiz uchun minnatdorlik bildiramiz

4 O'zbek tilining izohli lug'ati: -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. I-jild. - B.86.

5 Yadov V.A. Strategiya sotsiologicheskogo issledovaniya. Opisanie, obyasneniye, ponimaniye sotsialnoy realnosti. – M.: Dobrosovest, 2000, - S. 263-265.

6 Muallif ishlanmasi



Shuningdek, iqtisodiy tadqiqotlar uchun anketaning savollarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

Yopiq savollar: savollarga javoblarning tayyor variantlari beriladi (bittasini yoki bir nechtasini tanlash mumkin);

Ochiq savollar: javobni respondentning o'zi shakllantiradi;

Yarim yopiq savollar: savollarga javoblarning tayyor variantlari va respondentning "o'z varianti" uchun o'rin beriladi;

Shkalali savollar: shkala bo'yicha (masalan, 1 dan 10 gacha) belgilanadi.

Anketa so'rovi o'tkazish shakllari bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:

Bevosita: anketa blankalari tadqiqotchi tomonidan tarqatiladi.

Bilvosita: pochta orqali tarqatiladi yoki onlayn so'rov o'tkaziladi (Google Forms, Survey Monkey).

Iqtisodiy intervyu shaklida so'rov o'tkazish metodini yana quyidagi turlarga bo'lish va qo'llash mumkin:

- Chuqurlashtirilgan intervyular (CustDev): yangi tovarlar to'g'risidagi gipotezalarni tekshirish va ularga iste'molchilarning talablarini aniqlash uchun o'tkaziladi.

- Axborot-tahlil intervyulari: bozor jarayonlarini tahlil qilish uchun ma'lumotlarni to'plash va qarorlar qabul qilish maqsadida o'tkaziladi.

- Ekspert intervyulari: biron-bir soha to'g'risida maxsus bilimlarni egallash uchun professional mutaxassislar bilan o'tkaziladigan suhbatlar.

Iqtisodiy tadqiqotlarda intervyu o'tkazish xususiyatlari:

Aniq maqsadga qaratilganligi: aniq maqsad, tuzilmaga solingan reja va savollar ro'yxati, ammo ular savollarga to'laroq javoblar olish maqsadida o'zgartirilishi mumkin.

Yozib borish: intervyu natijalarini keyinchalik tahlil qilish uchun yozib borish (qog'ozga yoki diktofonga) shart.

Muloqot madaniyati: intervyuyer (tadqiqotchi) respondentning ishonchiga kira olishi va kompetentlik darajasini aniqlay olishi.

So'nggi yillarda iqtisodiy tadqiqotlarda anketa o'tkazish mikro va makroiqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish uchun birlamchi ma'lumotlarni to'plashda (field research) asosiy metodlardan biriga aylanmoqda.

Anketa so'rovi empirik tadqiqot metodi sifatida asosan iqtisodiyotning quyidagi sohalarida ko'proq qo'llaniladi: Marketing tadqiqotlari sohasida bozordagi talabni o'rganish, iste'molchilar xulq-atvori va nimalarni afzal ko'rishlari, brendning taniqliligi va bozorning segmentlashuvi va hokazolarni tadqiq qilishda foydalaniladi.

HR-menedjment va mehnat iqtisodiyoti sohalarida xodimlarning ishidan qoniqishlarini baholash, kadrlar yetishmasligini aniqlash va iqtisodiyotning kelgusi yilda mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojini prognozlash uchun qo'llaniladi.

HR-menedjment (Human Resources Management) – bu korxonaning biznes-maqsadlariga erishishi uchun xodimlarini boshqarish, jumladan izlash, yollash, moslashtirish, o'rgatish, rag'batlantirish va korporativ madaniyatni shakllantirish bo'yicha inson resurslaridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan strategik va amaliy tadbirlar majmuyi.

Innovatsion tahlil sohasida anketa so'rovi korxonalarning innovatsion faolligining ekspress-tahlil metodi sifatida qo'llaniladi.

Makroiqtisodiy prognozlash sohasida YAIM, inflyatsiya va ish faolligining kutilayotgan o'sishini baholash uchun (CEO Survey 2026) rahbarlar orasida so'rov o'tkazish maqsadida amalga oshiriladi.

Iqtisodiy tadqiqotlarda anketa so'rovi metodining xususiyatlari:

1. Raqamlashtirish (Online Surveys): so'rovlarning juda katta qismi maxsus platformalar orqali (WebAsk, Survio va b.) o'tkazilib, xarajatlarni kamaytirish va ma'lumotlar to'plashni tezlashtirishga erishiladi.

2. Resurslar tejallishi: ushbu metod kam xarajat qilingan holda minglab respondentlarni qamrab olish imkoniyati bilan qimmatli bo'lib, qattiq raqobat sharoitida biznes uchun o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Ma'lumotlar tahlili: olingan natijalar miqdor ko'rsatkichlarini tahlil qilish, ekonometrik modellar tuzish va iqtisodiy hisobotlarda grafik tasvirlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyotda empirik tadqiqotlar metodi sifatida so'rov o'tkazishning asosiy ikkita turi bo'lib, ular iqtisodiy intervyu va iqtisodiy anketa shakllarida amalga oshiriladi.

Anketa so'rovi katta guruhni tashkil etuvchi odamlarning fikrlarini, nimalarni afzal ko'rishlarini, xulq-atvorlarini yoki demografik ma'lumotlarini o'rganish uchun oldindan tayyorlangan savolnoma (anketa) asosida respondentlarning og'zaki yoki yozma javoblari orqali axborotlarni to'plashdan iborat tadqiqot metodi bo'lib, yuqori darajada standartlashgan va anonim bo'lgan miqdor va sifat ma'lumotlarni, asosan, zamonaviy onlayn instrumentlar yordamida olishga yordam beradi. Bu metod keng ommani qamrab olishni ta'minlaydi, samarali va tejimli bo'lib, so'rov o'tkazuvchining jarayonga ta'sirini kamaytiradi va natijalarini matematik-statistik metodlar yordamida tahlil qilishga imkon beradi.



Iqtisodiy tadqiqotlarda so'rov metodining intervyu (suhbat tarzidagi so'rov) shakli – bu tadqiqotchining respondent bilan bevosita suhbatlashuvi orqali birlamchi ma'lumotlarni to'plash metodi bo'lib, statistikada mavjud bo'lmagan eksklyuziv axborotlarni olish, ularning mazmun-mohiyatini tushunish, shuningdek iste'molchilar xulq-atvorlarini, biznes strategiyalarini va bozor tendensiyalarini o'rganish imkonini beradi. So'rovning bu shakli metod sifatida odamlarning tovar, ish va xizmatlarni qanday qabul qilishlarini, qanday muammolari borligini va nimani o'zgartirishni xohlayotganliklarini tushunishga yordam beradi.

Empirik iqtisodiy tadqiqotlarda intervyu olish va anketa so'rovlari o'tkazish, agar ular malakali tashkil etilsa va sifatli o'tkazilsa, ishonchli hamda aniq empirik baza shakllantirishga yordam beradi. Hozirgi vaqtda xilma-xil iqtisodiy axborotlarni to'plash uchun intervyu olish va anketa so'rovlari o'tkazish metodlari keng qo'llanilmayapti. Yana xulosa o'rinda alohida ta'kidlash joizki, iqtisodiyot ilmiga qadam qo'yayotgan yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar o'tkazish ko'nikmalarini orttirishi, fikrimizcha, bakalavr darajasidagi tahsildan boshlanishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.Mirziyoyev. Rizq-ro'zimiz bunyodkori bo'lgan qishloq xo'jaligi xodimlari mehnatini ulug'lash, soha rivojini yangi bosqichga ko'tarish-asosiy vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qishloq xo'jaligi xodimlari kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, Xalq so'zi, 10-dekabr 2017-y. № 248 (6942), - B. 2.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. -B.619. (– 688 b.)
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-jild. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. -B.201. (– 704 b.)
4. Резник Ю.М. Введение в социальную теорию. Социальная эпистемология. М., 1999. С. 268.
5. Ядов В.А. Стратегия социологического исследования. Описание, объяснение, понимание социальной реальности. – М.: Добросовест, 2000, - С.229.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. -B. 180. (– 704 b.)
7. Белановский С.А. Метод интервью в исследованиях экономических процессов. <https://socioline.ru/pages/belanovskij>
8. O'zbek tilining izohli lug'ati: -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. I-jild. - B.86.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100